

Toshkent shahrida demografik holat

2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2025-yilning 1-aprel holatiga Toshkent shahrining doimiy aholisi soni **3 128,5** ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **2,3** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-mart oylarida tug'ilganlar soni **14,8** ming nafarni, vafot etganlar **3,9** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **10,9** ming kishiga teng bo'ldi. Poytaxtimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **194** kishini va poytaxtdan xorijga ko'chib ketganlar soni **601** kishini, qayd etilgan nikohlar **3,4** mingtani, nikohdan ajralishlar **1,5** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 128,5	ming kishi
Tug'ilganlar soni	14,8	ming kishi
Vafot etganlar soni	3,9	ming kishi
Xorijdan ko'chib kelganlar	194	kishi
Xorijga ko'chib ketganlar	601	kishi
Nikohlar soni	3,4	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	1,5	ming birlik

II. Doimiy aholi soni


Toshkent shahrida doimiy aholi soni 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra **3 128,5** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **70,1** ming kishiga yoki **2,3** foizga ko'paydi. Ayollar soni **1 592,6** ming kishini (**50,9%**), erkaklar esa **1 535,9** ming kishini (**49,1%**) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	3 058,4	3 128.5	102,3
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	300,3	301,9	100,5
Bektemir	61,6	66,6	108,1
Yunusobod	378,3	387,1	102,3
M Ulug'bek	332,3	338,2	101,8
Mirobod	152,8	154,7	101,2
Shayhontohur	366,4	370,7	101,2
Olmazor	406,1	413,3	101,8
Sergeli	169,7	174,6	102,9
Yakkasaroy	134,7	140,8	104,5
Yashnobod	302,9	311,8	102,9
Yangiheyot	177,7	191,9	108,0
Chilonzor	275,6	276,8	100,4

Toshkent shahrida 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **6 983,2** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **156,5** kishiga ortgan (2024-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga **6 826,7** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Toshkent shahrida 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **14,8** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,3** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **1,8** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **3,9** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarish ku'zatilmadi.

Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Toshkent shahrida tirik tug'ilganlar soni **14,8** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **7,7** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **52,0%**), qiz bolalar soni **7,1** ming kishini (**48,0%**) tashkil etdi.

Toshkent shahrida vafot etganlar soni **3,9** ming kishini, shundan erkaklar **2,1** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **53,8%**), ayollar **1,8** ming kishini (**46,2%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Toshkent shahrida 2025-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **3,4** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **1,5** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,9** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan o'zgarish ku'zatilmadi.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Toshkent shahrida qayd etilgan nikohlar soni **3,4** ming birlikni, 2024-yilning mos davrida qayd etilgan nikohlar soni **3,5** ming birlikni tashkil etdi.

Toshkent shahrida nikohdan ajralishlar soni **1,5** ming birlikni, 2024-yilning mos davrida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **1,5** ming birlikni tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **22 340** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **22 146** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **194** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **17 534** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **16 933** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **601** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Toshkent shahri	22 340	22 146	194	17534	16 933	601
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	1 460	1 446	14	1 988	1 683	305
Bektemir	1 027	1 023	4	368	354	14
Yunusobod	2 201	2 195	6	1 687	1 646	41
M Ulug'bek	1 955	1 926	29	1 625	1 594	31
Mirobod	1 208	1 180	28	1 066	1 036	30
Shayhontohur	1 348	1 348	-	1 671	1 665	6
Olmazor	1 477	1 468	9	1 792	1 787	5
Sergeli	2 406	2 398	8	1 418	1 362	56
Yakkasaroy	919	917	2	864	853	11
Yashnobod	3 064	3 001	63	1 765	1 726	36
Yangihayot	3 573	3 571	2	1 088	1 069	19
Chilonzor	1 702	1 673	29	2 202	2 155	47

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D.Sattarova
71 203-80-03 (3570)

Manzil:
Toshkent sh., Amir Temur shoh
ko'chasi, 11 uy
